

## MARKAZIY OSIYO BUYUK MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVIY VA DINIY MEROSLARI AHAMIYATI

*Tursunboyeva Nargiza  
Bekbauliyeva Aysholpan  
Nukus davlat pedagogika instituti*

**ANNOTATSIYA** Maqolada Markaziy Osiyo buyuk mutafakkirlarining ma'naviy va diniy meroslari ahamiyati muhokama qilinadi. Islom ma'naviyati rivojlanishida o'z asarlari bilan katta hissa qo'shgan ulamolar asosan Markaziy Osiyodan edi. Islom tarixida dastlabki madrasalar Buxoro, Samarqand, Nasaf, Shosh, Marg'ilon shaharlarida ochilgan. Bu bilim yurtlarida dunyoviy ilmlar ha'm o'rgatilganligi tafsiflanadi.

Shuningdek, yurtimizda yashab ijod etgan buyuk alloma mutafakkirlarining bebaho ilmiy-ma'naviy merosini tadqiq qilish, ular qoldirgan asarlarni ilmiy-izohli tarjima qilib, ommalashtirish hamda horijiy davlatlardagi kutubxonalar, arxiv fondlarida saqlanayotgan qo'l yozmalarining elektron nusxalarni to'plab, xalqimizga etkazish dolzarb masalalarga aylanmoqda.

**Kalit so'zlar:** buyuk mutafakkirlar, Markaziy Osiyo, ma'naviyat, diniy meros, ma'rifat, Qur'on, hadis, islom, din, e'tiqod, adabiyot, odob, axloq

Har qanday davr va har qanday jamiyatda ham olimu ulamolar, mutafakkiru donishmandlarning o'rni beqiyos bo'lgan. Elu-yurt o'zining shunday aziz va etuk farzandlari bilan haqli ravishda fahrlangan, ko'ngli tog'day ko'tarilib, g'ururi iftihorga to'lgan.

Bu hayotiy haqiqatdan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, Allohning nazari tushgan yurtimiz-O'zbekiston zaminidan azal-azaldan o'zlarining ilmiy-ma'naviy, ma'rifiy-falsafiy meroslari bilan jumlai jahonga tanilgan ko'plab buyuk allomalar va mutafakkirlar etishib chiqib, samarali faoliyat ko'rsatganlar.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Markaziy Osiyo uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyondalari islom va jahon tsivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan. Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra, islom dinida Qur'oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan "Sahihi Buxoriy"ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan al-Jomi as-Sahih" kitobi islom dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, ahli islom e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi. Bu ulug' zotining boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, ma'rifiy islom to'g'risidagi ta'limotini keng yoyish maqsadida Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risidagi qaror qabul qilindi". [1]

Ular aql-zakovati, tafakkur dunyosiva yuksak ilmiy salohiyatining mahsuli bo'lgan bebaho asarlari, buyuk kashfiyotlari ming yillar osha nafaqat bizning diyorimiz, balki jahon ahlining qudratli ma'naviy mulki sifatida ham ardoqlanadi. Bu umumbashariy

meros dunyo tamalduni rivojiga qo'shilgan munosib hissa bo'lgani hozirgi vaqtda ilm aqlariga ham keng jamoatchilikka ham yaxshi ma'lum.

Islom ma'naviyati, aytish mumkin, asosan bizning ajdodlarimiz sayi-harakati bilan kamol topdi, rivojlandi.

Diniy va dunyoviy ilmlarga etibor ajdodlarimizning benazir fazilatlaridan biridir. Arablarning mamlakatimizga bostitrin kelishi, aholining vahshiyona talanishi va qatl qilinishi, mamlakat vayron qilinishi, xalqning qashshoqlashuvi, ijtimoiy-siyosiy beqarorlik hukm surgan bir davrda savodxon avlod orzusi bilan yashagan alloma ajdodlarimiz beadam fahrimizga loyiqdir.

Islom ma'naviyati rivojlanishida o'z asarlari bilan katta hissa qo'shgan ulamolar asosan Markaziy Osiyodan edi. Islom tarixida dastlabki madrasalar Buxoro, Samarqand, Nasaf, Shosh, Marg'ilon shaharlarida ochilgan. Bu bilim yurtlarida dunyoviy ilmlar ha'm o'rgatilgan. Ular XI asrdan boshlab etakchi o'quv yurtiga aylangan. XI-XII asrlarda O'rta Osiyoning barcha yirik shaharlarida madrasalar bo'lgan. Bu madrasalarning ayrimlarida tibbiyot, aruz ilmi, falsafa, geografiya va boshqa fanlar o'rgatilgan.

“Bundan besh asr muqaddam Mirzo Bobur islom dinining asosiy ilimlari: ilmi hadis, ilmi kalom va ilmi fiqhning zabardast namoyondalari bo'lmish uch mo'tabar zot-Imom Buxoriy, Shayx Abu mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniyning ko'hnaTurkiston farzandlari ekanini ta'kidlab, “Hazrati risolat zamonidan beri ul miqdor aimai islomkim (islom olimlarikim) Movarounnahrning paydo bo'libtur, hech viloyatdan mazmun emaski, muncha paydo bo'lmish bo'lg'ay, deb fahrlangan edi”. [2;160]

Ajdodlarimiz ilmiy tafakkur borasida jahon ilm-faniga qo'shgan hissalari tufayli qator fanlar yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: “Bu erda gap, eng avvalo, yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini etkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda”. [3;47]

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov shunday ta'kidlaydi: “Nega biz mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab ulug' ajdodlarimizning tabarruk nomlarini tiklashga kirishdik. Chunki bu buyuk insonlarning aziz nomlari, o'lmas merosi muqaddas dinimiz bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Biz dinimizni bu ulug' nomlarsiz, bu ulug' nomlarni esa dinimizsiz tasavvur qila olmaymiz”. [4;218]

Islom dinida “Islamun huva ilmun”-islom ilmidir, “Mavtul olimin-mavtul olamin”-olimning o'limi-olamning o'limi va boshqa hadislarda ilmga da'vat asosiy ta'limlardandir.

Islom diniga oid asarlari bilan nom qozongan Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad az-Zamahshariy (1075-1144) “Jorulloh”- “Allohning qo'shini”, “Butun dunyosining ustoz”, “Xorazm fahri” nomlari bilan ulug'langan.[5;43]

U arab tili, adabiyoti, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid 60 dan ortiq asar yaratgan. Bizgacha 20 ga yaqini etib kelgan. Eng mashhur asari Qur'on tafsiriga

bag'ishlangan "Al-Kashshof an haqiq it-tanziyl va uyun-il-aqoviyil fi vujud it-taviyl", yana "al-Mufasssal", "Atvoqu-z-zahab", "Maqomat", "Rabi'u-l-abror va nususu-l-ahyor", "Muqaddimatu-l-adab", "Al-foiq fi g'aribi-l-hadis", "Asosu-l-bolog'a" kabilarni ko'rsatish mumkin. Zamahshariy fikricha inson kamolotidagi asosiy poydevor ilmdir. Xususan, u "ilmli bo'l yoki ilmga tayanib ish tutadigan bo'l, loaqad ilmni tinglab eshitadigan bo'l, biroq to'rtinchisi bo'lma, chunki kasodga uchrab haloq bo'lasan", deb yozadi.

Imtsizlik illat bo'lib, olim fikricha, ilmli kishilar jamiyatda peshqadam bo'lishlari kerak. Uningcha, osmonu falakning ziynati yulduzlar bo'lganidek, eru zaminning ko'rkamligi olimlar bilandir. Yana, uning yozishicha "Lovullab yonayotgan olovni suv o'chirgani kabi nodon odamlardan chqayotgan alangani hakimu oqil odamlar co'ndirdilar". [6;59]

U o'zining "Atvoqu-z-zahab fi-l-mavoiz va-l-xutab" asarlarida insonlarni ezgulik va hayrli ishlarga undaydi. "Insonning asl otasi uning adabidir. Taqvo-parhezkorlik esa insonning asl onasidir. O'zingni shu ikki mehribon murabbiy bag'riga topshir va ulardan zinhor ayrilma. Shundagina seni tangri o'zining ne'matlari bilan serob qiladi hamda hayotining fayzu barakatli bo'ladi",-deb yozadi olim.

Zamahshariy "Maqomat" asarida shunday yozadi: "Eng baxitsiz odam kimdeyilsa, men aytardimki, u mol-dunyasini saqlab, ehtiyot qiluvchi, qadr-qiymatini paymol qilishsada, boyligi but bo'lishini istovchi kishidir. Eng baxtli odam shuki, u hushshubhat va fayz-futuhli bo'lib, o'z omborchasiga doimo boyligidan, xazinachisiga doim muhtojlarga yordam ko'rsatishni amr qiladigan, o'z nafsini havosi jo'sh urganda jim bo'l, deb bosib qo'yadigan, nafsoniyati engillik qilganda uni engib maqtov va tahsinga sazovor bo'ladigan kishidir" [7;14]. Olimdo'st tanglashda yanglishmaslik, qo'lidan yaxshilik kelsa avvalo o'z yaqinlariga ko'rsatish, halol va pok bo'lishiga shaqiradi.

Islom ta'limotida hadislar katta ahamiyatga ega. Islom tarixida ulug'lanib, buyuk muhaddis nomiga sazavor bo'lgan olti mutafakkirdan uchitasi Mavorounnahrdir. Bu olti muhaddislar orasida birona arab yo'q.

Yurtimizda yashab ijod etgan buyuk alloma mutafakkirlarining bebaho ilmiy-ma'naviy merosini tadqiq qilish, ular qoldirgan asarlarni ilmiy-izohli tarjima qilib, ommalashtirish hamda horijiy davlatlardagi kutubxonalar, arxiv fondlarida saqlanayotgan qo'l yozmalarining elektron nusxalarni to'plab, xalqimizga etkazish dolzarb masalalarga aylanmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I'Karimov shunday degan edi: "Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo'shgan betakror hissasi to'g'risida so'z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida "muhaddislar sultoni" deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mu'tabor zot merosining gultoji bo'lmish eng ishonchli hadislar to'plami- "Al-Jome as-Sahih" kitobi islom dinida Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, ahli islom e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi.

Mana, un ikki asrdir, bu kitob millionlb insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo'liga chorlab kelmoqda".

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy milodiy 810 yilda (194-hijriy) Buxoro shahrida dunyoga kelib, bolalik choglaridanoq Buxorodagi etuk allomalardan dars olib, hadis ilmida kuchli xotira va o'tkir sohibi bo'lib voyaga etdi. Imom al-Buxoriy o'n olti yoshida onasi va akasi Ahmad hamrohligida Makka shahriga haj qilgani borib, o'sha erda qoldi va hadis ilmini o'rganishda davom etdi. U erdagi zabardast ulamolardan Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning hadislarini yozib olib, o'sha davrdagi Islom olamida mashhur bo'lgan ilmiy markazlarga safar qildi, qishloq va shaharlarni kesdi, hadis ilmidagi bahs-munozaralarda ishtirok etdi. Natijada, Imom al-Buxoriy hadis ilmida kamolotga erishib, o'zi yod olgan 600 mingga yaqin hadislarini sahih va g'ayri sahihlarga ajratdi.

Imom al-Buxoriy Islom olami va muhaddislar orasida "Imom ul-Muhaddisiyn" (Barcha muhaddislarning peshvosi) deb hurmat bilan tilga olinadi. Imom al-Buxoriyning "Al-Jome as-Sahih" (Ishonarli toplan) asari haqida so'z ketkanda shuni aytish mumkinki, mazkur manba Islom dini ta'limotida Qur'oni karimdan keyin asosiy manba sifatida foydalaniladi. Imom al-Buxoriy yashagan davrdan oldin ta'lif etilgan hadis kitoblarida sahih va g'ayri sahih hadislar aralash holda berilgan bo'lib, o'quvchi ulardagi biror hadisni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini, hadis rivoyat qiluvchining ahvolini tekshirmay va aniqlamay turib, bilolmasdi.

Mana shunday og'ir davrda Imom al-Buxoriy "Al-Jomi as-Sahih" kitobini 16 yilda yozib tugatib, unga 7275 dan ortiq sahih hadislarini boblarga ajratib tartibli ravishda jamladi.

Imom Buxoriyning "Al-Jomi as-Sahih" kitobida mashhur olimlar tomonidan yuzdan ziyod sharq va hoshiyar bitilgan. Jumladan, "Fathul-Boriy", "Al-Kavkab ad-Daroriy", "Irshodus-Sariy", "Umdat al-Qoriy", "Fayzul Boriy" va boshqa ko'plab sharhlarni misol qilib keltirish mumkin.

Bundan tashqari, Imom al-Buxoriyning "Al-Adab al-Mufrad" (Odob durdanalari), "Birr ul-Volidayn" (Ota-onani hurmat qilish), "At-Tarix al-Kabir" (Katta tarix), "At-Tarix al-Avsat" (O'rtacha tarix), "At-Tarix as-Sag'iy" (Kichik tarix), "Al-Jome al-Kabir" (Katta hadislar to'plami), "Kitab al-Ilal" (Nuqsonli hadislar kitobi), "Kitab al-Kunya" (Hadis roviylarining tacalluslari) kabi yigirmadan ortiq asarlari mavjud.

Imom Buxoriyning ijodiy merosi o'zining hajmi, zamonasining diniy va ijtimoiy fanlarini to'la-to'kis qamrab olganligi bilan kishini hayratga soladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2017 yil 14-15 aprel kunlari Samarqand viloyatiga qilgan tashrifi chog'ida Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini qurish taklifini bildirib, shunday degan edi: "Buyuk mutafakkir bobomiz, barcha muhaddislar peshvosi Imom Buxoriy mangu ko'nim topgan ushbu maskanda o'ziga xos ma'naviy muhit mavjud. Majmuaga ziyoratga kelgan odam bu markazga ham kirib, o'ziga katta ozuqa olsin, bobolarimiz hikmatlaridan o'rganib

ketsin. Shunda ularning qalbida ulug' ajdodlarimiz bilan fahrlanish tuyg'usi rivoj topadi, ayni paytda shunday zotlarning avlodi ma'suliyatini his etadi".

Islom Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892) yillari tavallud topgan. Islom ilmlarining taraqqiy etishda Turkiston shaharlari ichida Termiz kenti ham katta ahamiyat kasb etgan. Samarqand va Buxoroni Balx kabi qadimiy ilm markazi bilan bog'lovchi shahar Termiz edi. Shuning uchun bu erda ko'plab allomalar etishib chiqqan. Shulardan biri-Abu Iso Imom Termiziydir. Manbalarda aytilishicha, u 300 dan ortiq asar bitgan. Shulardan 57tasi bizning zamonamizgacha etib kelgan.

Toliq nomi Muhammad ibn Iso Savra ibn Muso ibn Zahhoq Sullamiy Bug'iy Termiziy. Sullamiy deb nisbat berilishiga sabab bobolaridan biri sullam degan arab qabilasiga do'st tutingan. Bug'iy deyilishiga sabab usha vaqtdagi Bug' qishloqda vafot etib, shu erda dafn qiligan. Umrining oxirida ko'zi ojiz bo'lib qolgani uchun al-Darir tahallusi bilan ham atalgan.

At-Termiziy milodiy 824 yilda Termizda (Bug' qishlog'i, hozirgi Sherobod tumani), uncha badavlat bo'lmagan oilada tavallud topdi. Uning yoshlik yillari Termiz shahrida o'tib, dastlabki ma'lumotni ham shu shaharda olgan. At-Termiziy yoshligidan turli ilmlarni egallashga zo'r qiziqish bilan intilgan. Bolaligidan o'ta ziyrakli, yodlash qobiliyatining kuchliligi, noyob qobiliyati bilan o'z tengqurlaridan ajralib turgan at-Termiziy diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish bilan egallab, bu borada o'z bilimlarini muttasil oshirish uchun ko'pgina Sharq mamlakatlarini ziyorat qilgan.

Uzoq yillar Iroq, Isfahon, Xuroson, Makka va Madinada yashagan. Uzoq davom etgan safarlari chog'ida qiroat ilmi, bayon, fiqh, tarix, ayniqsa, o'zi yoshlikdan qiziqqan hadis ilmi bo'yicha o'sha davrning iyrik olimlaridan ta'lim oladi. Mashhur muhaddislar Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Qutayba ibn Muso, Mahmud ibn G'aylon va boshqalar uning ustozlari edi.

Termiziy Imom Buxoriy bilan uchrashganida (bu uchrashuv Nishopurda bo'lgan va ikki alloma besh yil birgalikda yashashgan) hadisning matninigina emas, uning hikmati va falsafasini tushunib etganini a'tirof etadi. O'z vaqtida Imom Buxoriy shogirdini maqtab, kamtarinlik bilan: "Sen mendan bahra topganingdan ko'ra men sendan ko'proq bahra topdim", degan. Bu Termiziyga berilgan juda katta baho edi.

Termiziy yo'lda, safarda bo'lganda ham, yoki bir joyda muhim turganda ham ustozlaridan, uchratgan roviylaridan eshitgan hadislarni yozib olar, ularni tartibli ravishda alohida-alohida qayd qilib borardi. 868 yilda horij safaridan o'z yurtiga qaytgan Termiziy ilmiy-ijodiy ish, shogirdlar tayyorlash bilan mashg'ul bo'ldi va yirik muhaddis, imom sifatida shuhrot qozondi.

Taqvodorlik, islom dini va obro'siga gard yuqtirmaslikka intilish, dunyo mol-matosi va boylikka beparvo qarash, oxiratning g'omini eyish Termiziyning hayoti tarzi edi. O'z davrining etuk muhaddis olimi sifatida tanilgan at-Termiziy ko'pdan-ko'p shogirdlarga ustozlik qilgan. Hadis ilmidagi uning shogirdlaridan Maqbul ibn al-Fadl, Muhammad ibn

Mahmud Anbar, Hamod ibn Shokir, Abd ibn Muhammad Nasafiy, Haysam ibn Kulayb Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf Nasafiylarni ko'rsatish mumkin.

Termiziyning asarlari ichida eng mashhuri, shubhasiz, "Al-Jome as-Sahih" bo'lib, 6ta ishonchli hadislar to'plamidan biridir, Ushbi asar diniy va dunyoviy manbalarda "Jomi at-Termiziy", "Sahihi Termiziy", "Sunani Termiziy" nomi bilan ham ataladi. Termiziyning muhim asarlaridan yana biri "ash-Shamoil an-nabaviya" Muhammad (a.s.v.)ning shaxsiy hayoti, uzotning suvrat va siyrati, ajoyib fazilatlar, odatlariga oid 408 hadisi sharifni o'z ichiga qamragan manbadir. Arab tilida bitilgan ushbu asarga bir qancha sharhlar ham yozilgan. Uning tili ravon, uslubi nihoyatda oddiy.

Buyuk vatandoshimiz Abu Iso Muhammad at-Termiziy bizga boy va katta ilmiy meros qo'ldirdi. U Xuroson va Movarounnahrda ilk tasavvuf ta'limotchisi, huquqshunoslik, tabiyatshunoslik, tabobat, ilmu nujum, tilshunoslik, axloq va boshqa ko'plab qomusiy ilm sohalarida asarlar yaratgan allomadir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, insonlarning g'oyasi, maqsadi din va dunyoga aloqadordir. Diniy nizom dunyoviy nizomsiz vujudga kelmaydi. Dunyoni vatan va doimiy qarargoh deb tushunmasdan, uni vosita sifatida bilganlar uchun dunyo Ollohga eltuvchi yo'ldir. Dunyoning tartib-nizomi odamlarning amallariga bog'liq.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil noyabr oyida Samarqandda Birlashgan Millatlar tashkiloti shafeligida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro anjumandagi nutqi

2.Mirziyoev Sh. 2017 yil 14-15 aprel kunlari Samarqand viloyatiga qilgan tashrifidagi so'zlagan nutqi

3.Sh.Mirziyoev.Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-T.O'zbekiston,2017.47b.

4.Karimov I. Olloh qalbimizda, yuragimizda. T.2009. Islom ziyosi o'zbekim siymosida. T.B.218.

5.Islom ziyosi o'zbekim siymosida, TIU nashriyot-matbaa birlashmasi. 2005. B.160.

6.Islomov Z."Islom madaniyati rivojlanishida ajdodlarimiz merosining ahamiyati"nomli maqolasi B.43.

7.Zamahshariy. Nozik iboralar. T.Kamalak. 1992. B.59.

8.Zamahshariy. Maqomat. Qohira. 1896. B.14.